

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR  
UNIVERSITETI**



**60210400 – DIZAYN (MEDIADIZAYN) BAKALAVRIAT TA‘LIM  
YO‘NALISHI BO‘YICHA IKKINCHI VA UNDAK KEYINGI  
OLIV TA‘LIM OLISH UCHUN KIRISH IMTIHONLAR  
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

**Tuzuvchilar:**

**A.Matyakubov – O‘zJOKU Mediamarketing va mediadizayn kafedrası mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent**

**G.Zokirova – O‘zJOKU Internet jurnalistika va ijtimoiy tarmoqlar fakulteti dekani, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

**Taqrizchilar:**

**A.A.Karimov – O‘zDJTU xalqaro jurnalistika fakulteti dekani, filologiya fanlari nomzodi, dosent**

**Olimjon O‘sarov – Jurnalistlar ijodiy uyushmasi raisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

## Kirish

60210400 – Dizayn (Myediadizayn) ta'lim yo'nalishiga ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish uchun kirish imtihonlari va baholash mezonlarini belgilaydi.

Ushbu dasturning maqsadi abituriyentda mazkur sohada talab etadigan ijodiy qobiliyat, kreativlik, zaruriy axborot texnologiyalari va dasturlaridan foydalanish ko'nikmasining mavjudligi, axborot mahsulotining tarkibiyelementlarini mantiqan mos va uyg'un holda joylashtira olishi kabi sifatlarning mavjudligini hamda uning dunyo qarashi va fikrlash doirasini aniqlashdir. Ijodiy imtihon jarayonida abituriyentlarning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratiladi:

- Ijodkorlik qobiliyati;
- Dunyoqarashining kengligi, qiziqishlari doirasi;
- OAV va mediadizayn sohasini qay darajada bilishi;
- Mediadizayn kasbiga moyilligi;
- OAV faoliyatida dizaynning ahamiyatini chuqur tushunishi;
- Nashrlarni dizayn qilish amaliyoti bilan tanish ekanligi;
- Nashrlarni dizayn qilishning texnik va dasturiy ta'minotidan xabardorlik darajasi;
- Fikrlash va ijodda kreativ yondashuvning mavjudligi;
- Yozma savodxonlik darajasi;
- O'z fikrini erkin, aniq, mantiqli va izchil ifoda etish mahorati;

## Kirish imtihonining tuzilishi

**Kirish imtihoni bir bosqichda - abituriyentlar CorelDraw, Adobe Photoshop dasturlaridan foydalanib, muayyan gazeta, jurnal yoki veb-saytning bosh sahifasi maketini, o'z ismi-sharifi logotipidan foydalanib yaratilgan vizitkani yaratadi.**

Dizayn loyiha (amaliy) ishi quyidagi tartibda o'tkaziladi.

CorelDraw, Photoshop dasturlaridan foydalanib, muayyan gazeta, jurnal yoki veb-saytning bosh sahifasi maketini yaratishi uchun abituriyentga **1,30 astronomik soat** vaqt ajratiladi.

Amaliy ish maxsus kompyuterlar bilan jihozlangan xonalarda o'tkaziladi.

Dizayn loyihalash ishini baholashda kompozitsiyaning mavzu jihatdan originalligi, sahifaning mavzusiga mos dizayn tanlanganligi, badiiy va g'oyaviy ifodada ranglardan to'g'ri foydalanilganligi, tasvirlar va dizayn elementlarining jurnalistik mahsulot mazmuniga va nomiga mosligi, sahifa yoki nashr nomiga mos logotip ishlab chiqilganligi va unga mos shakl topa olinganligi, ishlanish mahorati va uning tugallanganlik darajasi kabi masalalarga e'tibor qaratiladi.

**Amaliy ish natijalari ikki kundan so'ng e'lon qilinadi.**

### **Amaliy ish va ijodiy imtihonni baholash mezonlari**

Amaliy ish yagona ko'p balli baholash tizimi bo'yicha baholanadi.

Amaliy ishda to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball miqdori – 100 ball.

### **Amaliy ishni baholash mezonlari**

**CorelDraw, AdobePhotoshop dasturlaridan foydalanib, yaratilgan nashr sahifasi maketi, o'z ismi-sharifi logotipidan foydalanib yaratilgan vizitkani baholash mezonlari:**

**Ajratilgan ball miqdori - 0 - 100 ball**

<b>№</b>	<b>Mezonlar</b>	<b>Ajratilgan ball</b>
1.	Kompozisiya mavzu jihatdan original topilganligi, kreativlik	15 ball
2.	Grafikda sturda qatlam, ranglar palitrasi va matn stillaridan to'g'ri foydalanganligi	13 ball
3.	Sahifada sarlavha, rukn, hoshiya va chegara chiziqlarining mavjudligi va to'g'ri joylashtirilganligi	12 ball
4.	Grafikda stur interfeysi bilan ishlash uchun yetarli tajriba va ko'nikmaga ega ekanligi	12 ball
5.	Sarlavxada mavjud ma'lumotlarning bir-biriga nisbatan to'g'ri joylashtirilganligi va masshtabliligi	12 ball
6.	Tanlangan tasvir va suratlarning tanlangan mavzu va mutaxassislikka mosligi	12 ball
7.	Matn va shriftlarning to'g'ri tanlanganligi va o'qishga qulaylik darajasi	12 ball
8.	Ishlanish mahorati va ishning tugallanganlik darajasi	12 ball
<b>JAMI:</b>		<b>100 ball</b>

Imtihon bosqichida to'plangan ballar qaydnomaga kiritiladi. Qaydnoma belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, mas'ul kotib yoki uning muoviniga takdim etiladi.

### **Amaliy ishi natijalarini apellyatsiya qilish tartibi**

Imtihon bosqichlari natijalari bo'yicha apellyatsiyaga arizalar faqat imtihon bosqichlari natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat mobaynida qabul qilinadi.

Apellyatsiya qilish jarayonida abituriyentga qo'shimcha savol berishga ruxsat berilmaydi.

Imtihonda olingan bahoni o'zgartirish faqat fan bo'yicha komissiyaning roziligi bilan va faqat apellyatsiya qiluvchi abituriyent ishtirokida oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Imtihon o'tkazilishiga qadar apellyatsiyaga ariza berish va uni ko'rib chiqish tartiblari abituriyentlar e'tiboriga yetkaziladi.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. 2022 yil «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili» mazmun va mohiyati.
2. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. <https://lex.uz/uz/docs/5841063>
3. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidanilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., “O'zbekiston”, 2016.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., “O'zbekiston”, 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., “O'zbekiston”. 2017.
7. Mirziyoyev Sh.M. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga // “Xalq so'zi” gazetasi 2019-yil 27-iyun.
8. Raytman M.A. Adobe Photoshop. Ofisialnyučebnykurs. Moskva. 2017.
9. Yevgeniya Tuchkevich: Adobe Photoshop CC. Moskva. 2019.
10. Komolova, Yakovleva: CorelDrawX8. Samouchitel. Moskva. 2017.
11. Do'stmuhammad X. Jurnalist bo'lmoqchimisiz? – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
12. Toshev F. Jurnalistning noni qattiq. – Toshkent, 2009.
13. Jabborov Sh. O'zbekistonda kim yaxshi yashaydi. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.